



**NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM”
HIKOYASIDA SYUJET TAHLILI**

Xalova Maftuna Abdusalamovna

SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti

Eshmatova Salima Iskandar qizi

SamDCHTI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur yozuvchilardan biri bo'lgan Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, asar syujeti batafsil yoritib beriladi. Bundan tashqari, syujetning mohiyati va foydalanish tartibi aytib haqida ham atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: syujet, syujet unsurlari, syujet tiplari, asar mohiyati, syujet qo'llanilish tartibi.

Ma'lumki, syujet asarning voqealar tizimi bo'lib, asarning asosini tashkil qiladi. Syujet asarning rang-barang vositalaridan biridir, shuning uchun syujetsiz asarni tasavvur qilish qiyin. Badiiy asarda syujetning yaratilishini g'oyaviy mazmun boshqaradi, g'oyaviy mazmunning talabiga uyg'un holda xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi.(1) Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasini tahlil qilar ekanmiz, syujet qoidalariga e'tibor qaratish muhim.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasi syujeti o'ziga xos va ancha murakkab. Asardagi qahramonlar: yigit va rassomning munosabatlari hamda portretlar tasviri asosiy syujetni tashkil qiladi. Voqealar yigit tomonidan aytib boriladi. Asar boshidanoq cholga nisbatan yigitda yomon fikrlar paydo bo'ladi. Bunga sabab uning sovuq yuzi va qarovsiz qolgan kulbasi edi. Cholning va yigitning o'zaro bir- biriga bo'lgan sovuq munosabatlari, o'z navbatida, konfliktni yuzaga keltiradi. Konflikt har bir asarda bo'ladigan yoki bo'lishi kerak bo'lgan obrazlar nizosi yoki ziddiyatlardir. Agar asarni uy deb olsak, konflikt-unga kiradigan eshik. Biroq asar davom etar ekan, chol haqidagi kitobxonning fikri o'zgara boshlaydi. Chol o'z hayoti tarixi haqida so'zlaganda a'yon bo'ladiki, u o'z hayoti misolida rasmlar chizgan. Rasmlar yillar o'tgan sari rassom cholning hayotidek sekin-asta so'lib boradi, o'z ranglarini yo'qotadi.

Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. Ekspozitsiya syujetning boshlanish qismi bo'lib, o'quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar



konflikti yetilgan shart- sharoitlar bilan tanishtiradi.(1) Asarni syujet tarkibiy qismlari, ya'ni unsurlari bilan tahlil qiladigan bo'lsak, yigitning mahallaga ko'chib kelishi, kekxa cholni ko'rgan paytidagi kechinmalari ekspozitsiya qismini tashkil qiladi.

Asarning tugun qismi yigit kekxa rassomning rasmlarini ko'rgan paytida boshlanadi. Tugun bu konfliktgacha bo'lgan yoki uni keltirib chiqaradigan voqealardir. Asarning tugun qismi voqealar rivojiga yo'l ochadigan syujet turidir. Voqealar tuguni yuzaga kelgach, u qandaydir tarzda o'sib, rivojlanib boradi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o'rtasida emas, qahramonning aynan o'zining o'y-kechinmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.(2) Ushbu asarning tugun qismi bolaning cholga ovqat tashlab ketayotganida, ko'rib qolgan bir parcha su'ratlar bilan boshlanadi. Bola cholning hovlisidan chiqarkan, ichkarida qolgan rasmlar haqida o'ylay boshlaydi. Bu san'at asarlarini chol yaratganligiga shubxa qiladi.

Asarning kulminatsion nuqtasi bu o'sha mashhur rasmning ko'rinish berishidir. Bir qaraganda oddiy ko'ringan bu rasm, aslida asardagi asosiy g'oyani kitobxonga yetkazib beradi. Fahmlagan kitobxon bu rasmni asar boshida keltirilgan o'xshash rasm bilan bog'laydi va ma'no izlashga tushadi. Asar qahramoni ham rasmlarni solishtiradi. Kekxa rassomning nima demoqchi ekanligini anglashga urinadi. Oxirgi chizilgan rasmda maymunning bir yoshi ulug' insonni quyuq o'rmonga yetaklab ketayotganligi; oldinroq chizib bo'lingan, shunga o'xshash boshqa bir rasmda esa navqiron yigit o'rmondan maymunni kishanlab olib chiqayotganligi tasvirlangan.

Badiiy adabiyotda asarlar voqea ketma-ketligi hisobiga quyidagi tiplarga bo'linadi: xronikali syujet, retrospektiv syujet, konsentrik syujet va assosiativ syujet. Ushbu hikoya retrospektiv syujet tipiga mansub bo'lib, qahramonning hikoyani aytib berishidan boshlanadi.

Syujet unsurlari hamma asarlarda ham ketma-ketlikda foydalanilmaydi, chunki ba'zi asarlarda syujetning u yoki bu unsuri ishlatilmasligi mumkin. Boshqa bir asarlarda esa syujet unsurlarini ajratib ham bo'lmaydi. Umuman syujet unsurlarining bir-biriga birikish tartibi turli asarlarda turlicha bo'ladi. (3) Shu sababli ham bu qissadagi foydalanilgan syujetlar noto'g'ri tartibda ishlatilgan deb aytib bo'lmaydi.

Asarning qisqacha mazmuni va mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, keltirilgan rasmlar aynan qanday g'oyani ilgari surganligi ochiq- oydin aytib o'tilmagan. Biroq shuni taxmin qilish mumkinki, chol o'z hayotini rasmlarga ko'chirishni istagandir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, umri o'tgani sari, rasmlarining ham rang- barangligi kamaya boshladi.

Yuqoridagi ikki mashhur san'at asari cholning hayot yo'lini ko'rsatadi. Rasmlardagi navqiron ham, yoshi bir joyga borib qolgan kekxa inson ham



rassom cholning o'zidir. Maymun esa umr. Yosh bo'lganida o'zi boshqargan umr, qari bo'lganida uning o'zini boshqaradi. Yoshlik davrida har bir inson o'z xohish- istaklarini to'laqonli bajarsa, keksalik paytida o'z umri tugashini poylashdan, o'sha "Maymunga" bo'yin egishdan boshqa iloji yo'q.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi syujeti orqali inson va uning umri o'rtasidagi masalalarni yoritib beradi. Asardagi har bir voqea syujetning mukammal bo'lishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2018.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004.
3. Abdulla Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2018.
4. To'xta Boboyev. O'zbekiston" nashriyoti. – Toshkent, 2002.